



**DEVIANT XULQLI O'SMIRLARDA KASB TANLASH
MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Raxmatillayev Abror Abduraxmon o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deviant xulq-atvorli voyaga yetmaganlarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning psixologik jihatlari o'rganilib, tahlil qilib chiqilgan. O'smirlik davrida o'z-o'zini anglash va kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish, oila-psixolog-pedagogning o'zaro hamkorligi, shuningdek, o'smirlik yoshidagi xulq-atvorning xususiyatlari va bu davrda shaxsning shakllanishi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Abstract: This article studies and analyzes the psychological aspects of the formation of motivation for choosing a profession in adolescents with deviant behavior. The development of self-awareness and professional orientation in adolescence, the interaction of the family-psychologist-pedagogue, as well as the characteristics of behavior in adolescence and the formation of personality during this period are also discussed.

Аннотация: В статье изучаются и анализируются психологические аспекты формирования мотивации выбора профессии у подростков с девиантным поведением. Рассматриваются вопросы развития самосознания и профессиональной направленности в подростковом возрасте, взаимодействия семьи, психолога и педагога, а также особенности поведения в подростковом возрасте и становления личности в этот период.

Kalit so'zlar: deviant xulq, motivatsiya, o'smirlik davri, o'spirinlik davri, akseleratsiya, kasb tanlash, psixokorreksiya, psixologik maslahat.



Kirish

Hozirgi zamonaviy davrda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ularni kasb tanlash jarayoni jamiyat va davlatning dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, deviant xulqli o'smirlarni jamiyatga moslashtirish, kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirish va bu jarayonning psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda so'ngi yillarda prezidentimiz tashabbuslari bilan yosh avlodni o'qitish tizimini, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonini va o'z qiziqish, qobiliyatlarini amalga oshirishlarini ta'minlash maqsadida qator imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Chunonchi, maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon standartlariga javob beradigan ta'lim muassasalarini barpo etish, ularni zamonaviy va qulay jihozlar bilan ta'minlash, zarur o'quv darsliklarini yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi yoshlarni har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishiga zamin yaratishini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, davlatimiz rivojlangan mamlakatlar bilan ta'lim-tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish maqsadida o'zaro yoshlarni tajriba almashishi va nufuzli o'quv yurtlarida har ikki mamlakatning ham talabalari tahsil olishi uchun qulay sharoitlar yaratib berayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Bu bo'yicha O'zbekiston rivojlangan Osiyo, Yevropa, Amerika davlatlari va xalqaro ilm-fan tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatib, qator shartnomalar imzolab kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu



masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"¹, - degan ta'kidi, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, deviant xulqli o'smirlar bilan profilaktik ishlar olib borishga, jamiyatga moslashtirishga va ularni kasb-hunarga yo'naltirishga alohida e'tibor berilayotganining dalolatidir.

Asosiy qism

Mazkur maqolamning nazariy asoslari motivatsiya nazariyalari va deviant xulqni o'rganish tamoyillariga asoslanadi. Xususan, N.I.Krilovning kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan o'tkazgan tekshiruvi va L.I.Bojovichning motivatsion nazariyasi, shuningdek, deviant xulqning psixologik ildizlarini o'rganishga oid I.V.Leonova, E.A.Gorshkova kabi olimlarning nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik bazasini tashkil etadi. Bu nazariyalar asosida deviant xulqli o'smirlarning kasb tanlashga bo'lgan motivatsiyasi hamda ular uchun ijobiy mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I.Krilov o'tkazgan tekshiruvi shuni ko'rsatdiki, hatto o'z niyatlarini amalga oshirib, oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarini kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. O'zining kasb tanlash bo'yicha taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlagan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki nizolarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi².

¹ Mirziyoyev Sh.M. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.1 iyul, 2017.

² B.N.Sirliyev, O.A.Tursunova Yosh davrlari va differensial psixologiya: -T., 2019. 194 b



Tadqiqotchi N.I.Krilov o‘tkazgan tekshiruvda yoshlarning kasb-hunar haqidagi dunyoqarashlari hali to‘liq shakllanmaganligini, tasavvuridagi kasb bilan hayotdagi kasb o‘rtasida tafovut mavjudligini, ya’ni u o‘ylagan kasb aslida juda murakkab, mas’uliyatli va mashaqqatli ekanligini, kasb egallamoq uchun kasbiy bilim zarurligini, shuningdek, har bir shaxsning psixologik va fiziologik holatini qay darajada ekanligiga bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

Deviant xulqli o‘smirlarda iroda zaifligi g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilishga sabab bo‘ladi. Bu kelgusida ularning axloqi va xulqida o‘z aksini topadi. O‘smirlarning irodasizligi tufayli axloq normalariga zid xatti-harakatlar qilishlari huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi.

Rus psixologi I.V.Leonovanning ta’kidlashicha, “bolalardagi deviant xulq-atvorning oldini olish uchun eng maqbul shart-sharoit yaratish – deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha obyektiv va subyektiv omillarni kompleks tahlil qilishga asoslangan profilaktik ishlar jarayoniga maqsadli yondashuvdan iboratdir”³.

Amaliyotchi psixologlar deviant xulq-atvorli o‘smirlar bilan ishlashda, avvalo, bola tarbiyasining buzilish sabablarini aniqlashi zarur. Bu jarayonda voyaga yetmaganlarning oilaviy ahvolini o‘rganishi, mahalla bilan ota-ona o‘rtasida uzviy aloqani o‘rnatishi, maktab o‘qituvchilari bilan aloqani mustahkamlashi, profilaktika inspektorlari yordamidan foydalanishi, o‘quvchining darsga qatnashishini kuzatishi, darsdan tashqari faoliyatni nazorat qilishi, turli savol-javoblar o‘tkazishi zarur hamda bu orqali tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash bo‘yicha dastur va rejalar belgilab olinadi. Bundan tashqari, bolaning tibbiy varaqasi bilan tanishib chiqish talab etiladi. Uning psixik rivojlanishidagi kamchiliklar ayni o‘smirlik yoshida o‘z

³ I.V.Leonova Роль СМИ в предупреждении девиантности подрастающего поколения //

Электронный журнал «Знание. Понимание. Умение». – 2008. - №2.



asoratini ko'rsatadi. Bunday bolalar bilan maktab shifokori, tuman sog'liqni saqlash bo'limlari, xalq ta'limi bo'limi qoshidagi "o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi" yoki "tibbiy pedagogik-psixologik komissiya" shifokori bilan birgalikda ularning sog'lig'ini dispanser kuzatuvidan o'tkazishda hamkorlik qiladi. Aksincha, bola sog'lom, yaxshi rivojlangan bo'lsa-yu, oila yoki jamoa tarbiyasiga bo'ysunmasa, bunday vaziyatlarda pedagog yoki psixolog o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak. Avvalo, bola bilan suhbatlashib nima uchun uning xulqida o'zgarishning yuzaga kelganligini, ko'cha ta'siriga berilganini, salbiy norasmiy guruhlarga a'zo bo'lib qolishi, darsni sababsiz qoldirishi, bo'sh o'zlashtirishi, jamoat ishlarida qatnashmaslik sabablari aniqlanadi. Suhbat yakunida olingan ma'lumotlar asosida voyaga yetmaganlar xulqidagi og'ishlarni tuzatish uchun profilaktik tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, dastavval psixodiagnostik ishlar, ya'ni suhbat va kuzatuv usuli, test metodikalari orqali o'smirlarni qanday holatda ekanligi va deviant xulq atvorning qanday shakli hosil bo'lganligi aniqlanib, tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda olingan xulosamiz asosida reabilitatsiya dasturlari tayyorlanadi va korreksion ishlar tashkil etishga tayyorgalik ko'riladi. Xulqi og'ishgan bolalar bilan ishlash individual va guruhlar shaklida olib boriladi.

Tadqiqotchi E.A.Gorshkova tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf jamoasi bilan bo'ladigan munosabatlarini sog'lomlashtirish voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olishda muhim omil sifatida o'rin tutadi, deb ta'kidlaydi va quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalarni o'rtaga tashlaydi:

- tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf jamoasidagi o'rni va uning sinfdoshlari, atrofdegilar bilan bo'lgan munosabatlarini sog'lomlashtirish;
- tarbiyasi qiyin o'smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish;
- tarbiyasi qiyin o'smirlarning sinf va maktab jamoasidan ajralib qolishining



- oldini olish tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish;
- tarbiyasi qiyin o‘smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o‘tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish;
 - sinf jamoasi a‘zolarida sog‘lom psixologik munosabat hissini shakllantirish;
 - sinf va maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish⁴.

Ushbu tavsiyalar voyaga yetmaganlarni ijtimoiylashuviga va kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishiga ko‘proq ota-ona, psixolog va o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida ish olib borishi muhimligini ko‘rsatmoqda.

Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg‘u berib: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashi shakllanishining bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta‘sirini nazarda tutadi⁵, o‘z kuzatishlarida.

Ilk o‘spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo‘lar ekanlar, o‘zlarining hayot yo‘llarini belgilab olishga, bundan keyingi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollari aniqlab olishga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yana barqaror bo‘lib qoladi.

O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma‘naviy dunyosi boyiydi, turli xil ziddiyatlar avj oladi. Xarakterning o‘zgarishi, o‘z dunyosi va qarashlarining paydo

⁴ B.N.Sirliyev, O.A.Tursunova Yosh davrlari va differensial psixologiya: -T., 2019. 222 b

⁵ B.N.Sirliyev, O.A.Tursunova Yosh davrlari va differensial psixologiya: -T., 2019. 166 b



bo'lishi, yangi qiziqishlar va ehtiroslar, mustaqil bo'lishga nisbatan kuchli intilish o'smirlarning jamiyat me'yorlari va talablaridan cheklanib, tashqi me'yorlarni shubha ostiga olib, o'zi uchun qadrli deb bilgan sifatlarda o'zini namoyon etishga urinishiga olib keladi. Xususan, o'smirlik davrining psixologik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, o'smirlar taqlidchanligi, ijtimoiy nuqtai nazarining shakllanmaganligi, hissiyotlarga beriluvchanligi, qiziqqonligi bilan farqlanadi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan uning xulq-atvorida ham o'zgarishlar seziladi, ya'ni ularda serzardalik, jizzakilik, o'jarlik, tajanglik, urishqoqlik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, kattalarning qayg'urishlari va koyishlariga qaramay, o'z fikrini o'tkazishga harakat qilish, turli tashqi ta'sir va ommaviy madaniyatga intilish kabi deviant xulq-atvor kuzatiladi. O'smirning o'zini namoyish etishdagi beboshligi, o'z mustaqilligini ko'rsatish niyatida intizomni buzishi, shaddodlik kabi bezarar salbiy shakllari g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllarigacha yetishi mumkin. Bu shakllar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ular deyarli hamma vaqt janjallar, nizolar yoki tajovuzkorlik va oshkora bo'ysunmaslikda namoyon bo'ladigan tengdoshlari va atrofdagilarga yomon munosabat bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda deviatziyalari tajovuzkorlik, huquqbuzarlik, ichkilikbozlik, toksikomaniya, giyohvandlik, axloqqa zid va suistidial xatti-harakatlar shaklida qaraladi. O'smirlik 10-11 yoshdan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Ushbu yoshda dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o'zlikni anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadi va shaxsga oid tizim yuzaga kela boshlaydi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllana borib, uning atrofida qilari, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshidagi bolaning birinchi galdagi intilishi u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofida qilari ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga haqqi borligiga o'zini-o'zi ishontiradi, chunki men endi



“katta bo‘lib qoldim” deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar “katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi”ni shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

Kuzatishlarda ma‘lum bo‘lishicha, o‘smir o‘zining qobiliyati va kuchini to‘g‘ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yetarli darajada emasligi uchun kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. Lekin u o‘z xatosini tan olishdan ko‘ra kattalar bilan bahslashishni afzal ko‘radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go‘yoki uni mensimaslik belgisi, atayin qilinayotgan ish bo‘lib ko‘rinadi. U mustaqil, o‘zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga e‘tibor bermaydi. Ayrim o‘smirlar o‘zining kattalar safiga qo‘shilganligini namoyish qilish uchun turli xil salbiy odatlarga o‘rgana boshlaydilar. O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar o‘qituvchi va ota-onalarni qattiq tashvishga soladi. Ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun esa kattalardan pedagogik-psixologik bilim va tajriba talab etiladi. Bu yoshda kattalar o‘smirlarni bilib-bilmay qilayotgan kamchilik va xatolarini ko‘pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo‘l bilan yondashgan holda yordam berishi, uni “katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi”ni singdirib emas, balki katta odam qanday bo‘lishligi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatish zarur.

O‘smirlik davridan so‘ng, o‘spirinlik davri boshlanadi, ya‘ni ijtimoiy jamiyatga va o‘zaro shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayoni yuzaga keladi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni dav‘at etadi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur‘ati va uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Akseleratsiya, ya‘ni bolalarning jismoniy rivojlanishini tezlashuv bosqichi natijasida bugungi ilk o‘spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga qaraganda o‘rtacha ikki-uch yil avval



yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab uch bosqichga ajratadilar:

1-bosqich – prepubertat

2-bosqich – pubertat

3-bosqich – postpubertat

Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi bugungi kunda 15-16 yoshdan 18 yoshni tashkil etadi. Mazkur taraqqiyot davrining konkret mazmuni, birinchi navbatda, ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, mavqei, egallaydigan bilimlarining hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bog'liq hisoblanadi. Ilk o'spirinlik davrida bolalarning jismoniy o'sishi, rivojlanishi tezlashishi natijasida qiziqish va qobiliyatlar ham yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Maktablarda 8- va 9-sinfdagi o'quvchilar endilikda qaysi kasb tanlash kerakligi va kelajakda o'zini qanday tasavvur qilishligi to'g'risida o'ylab, aniq bir to'xtamga kela olmaydilar. Bu paytda ota-onalar o'z farzandlariga e'tiborli bo'lib, vaqtlarini ajratib, to'g'ri nasihatlar bermoqligi va ularni kasb-hunar egallashliklariga har tomonlama yordam bermoqliklari kerak. Maktablarda esa o'qituvchilar bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirmoqliklari ham ahamiyatli hisoblanadi.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining ijobiy psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davridagi bolalardan keskin farq qiladi. Ular jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi shakllangan, o'zini-o'zi boshqara oladigan, vazmin, mulohazali bo'lib, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Shuningdek, uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchilariga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan qarash o'smirlik yoshiga



qaraganda bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligi, o‘z-o‘zini anglashi bilan bog‘liq motivlar bu davrda yetakchi o‘rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o‘spirinlarning kelgusi hayoti va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko‘ra fanlarga nisbatan qiziqishlari kengayadi. Uning fanlarga hamda shu fan o‘qituvchilariga nisbatan munosabati o‘zgaradi. O‘spirinlik davrida o‘zi ko‘zlagan maqsadlarga erishishga asoslangan motivlar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. O‘spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg‘ularning boyligi, xilma-xilligi, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo‘lish bilan ajralib turadi.

Shaxsning ilk o‘spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z-o‘ziga baho berish hamda o‘zini shaxs sifatida tan olishi yoki olmasligi hisoblanadi. O‘spirinlar o‘zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Ularni o‘z-o‘zini tarbiyalash borasida bir butun ma’naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va obrazning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o‘g‘il bolalar – qahramon shaxs, yaxshi ota, udaburon tadbirkor, kuchli shifokor yoki badiiy asar hamda kinofilmlardagi yorqin obrazlarni o‘zlariga ideal deb bilsalar; qiz bolalar esa mehnatkash ayol, nazokatli uy bekasi, jozibali jamoat arbobi, ilmiy xodim va yaxshi tarbiyachi kabilarni ideal hisoblaydilar. Ijtimoiy munosabat va hissiy-emotsional hayotda o‘z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o‘spirinning o‘zi hal qila olmaydi. Bu masalani o‘spirin ota-onasi va yaqinlari, o‘qituvchilar hamda o‘z tengqurlari ishtirokida ularning qo‘llab-quvvatlashida hal qilishi mumkin.

Ilk o‘spirinlarni to‘g‘ri kasb-hunar tanlashi shaxs sifatida shakllanishida muhim jihat hisoblanadi. Chunki kelajakda u o‘zi tanlagan kasbi bilan hayoti davomida doimiy faoliyat yuritib, jamiyatga kirib boradi hamda zarur kasbiy tajriba va hayot ko‘nikmasini hosil qiladi. Agar inson to‘g‘ri kasb tanlamasa, hayoti



davomida juda ko‘plab muammolarga uchraydi, qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, natijada kasbiy buzilishlar vujudga kelib, jamiyatda huquqbuzarliklar sodir bo‘lishiga, hatto jinoyat holatlari ko‘pashiga zamin yaratiladi. Insonning o‘z kasbi orqali oila tebratishi, atrofidagi insonlar uchun biror bir naf keltirishi shaxsning jamiyat va hayotda o‘z o‘rnini belgilashida, shaxsiy rivojlanishida, komil shaxs bo‘lib yetishishida, umrini samarali yashab o‘tishida asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa jamiyat va davlat taraqqiyotini, uning buyuk kelajagini ta’minlovchi jarayondir.

Xulosa

Demak, shaxs xulqidagi og‘ishni tuzatishda o‘smir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o‘smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o‘zgartirishga, nosog‘lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog‘lomlashtirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘smirlardagi mavjud bo‘lgan ijobiy sifat va xususiyatlarga tayangan holda ularda har tomonlama qiziqishni, birinchi navbatda, o‘qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish zarur bo‘ladi. Ayrim oilalarda bolalar va o‘smirlarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash – ularda infantillik (o‘zini nochor, yordamga muhtoj his qilish), muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilarga olib keladi.

Maqolam yakunida shuni xulasa qilishim mumkinki, amaliy jihatdan deviant xulqli o‘smirlar bilan ishlashda psixologik diagnostika va psixokorreksiya metodlari muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo‘llanilishi mumkin:

1. Psixodiagnostik usullar: O‘smirlarning psixologik holatini, ya’ni bilish jarayonlarini, hissiy-irodaviy holatlarini va individual psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun so‘rovnomalar, testlar va intervyu (suhbat) usullari, shu jumladan, kuzatish metodi qo‘llaniladi. Bu usullar ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va



- motivatsion ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.
2. Psixokorreksiya metodlari: Motivatsiyani rivojlantirish, deviant xulqni to'g'rilash hamda jamiyatga moslashtirish uchun maxsus treninglar, psixoterapiya usullari va guruh mashg'ulotlari o'tkaziladi.
 3. Kasbiy yo'naltirish bo'yicha dasturlar: O'smirlarni turli kasblar bilan tanishtirish, ularning mehnatga qiziqishini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun seminar va master-klasslar tashkil etiladi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi. Voyaga yetmaganlarda deviant axloq, xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi yana bir omil ota-onalarda farzandlar tarbiyasiga doir bilimlarning yetarli emasligidir. Bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Farzand tarbiyasida ularning yoshiga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish o'ta muhimdir. Shuningdek, ularda o'ziga ishonch, o'z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish zarur:

- ✚ bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish;
- ✚ ta'lim-tarbiya jarayonining samarali natija beradigan algoritmini doimiy olib borish;
- ✚ bolalarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish;
- ✚ ota-onaning farzandiga bo'lgan ishonchini bolaning ongiga singdirish;
- ✚ bola oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish;
- ✚ o'smirning yaqin qarindoshlari, o'qituvchilar, amaliyotchi psixologlar, mahalla fuqarolar yig'ini va shifokorlar bilan maslahatlashish hamda hamkorlikda ishlar olib borish.



Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi 1997-yil 29-avgust qonuni. –T., 1997
3. O'zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi qonuni. –T., 2016.
4. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T., 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1 iyul, 2017 y.
6. B.N.Sirliyev, O.A.Tursunova Yosh davrlari va differensial psixologiya. –T., O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
7. Mamedov R. (2005). Kasbiy yo’naltirish psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. Kasb tanlashda psixologik jarayonlar va o’smirlar bilan ishlash usullari.
8. Qurbonova S. (2019). O’smirlar psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi. O’smirlarning xulq-atvori va psixologik xususiyatlari.
9. Abdurahmonov I. (2016). O’smirlarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy rivojlanishida psixologik yondashuvlar. Toshkent: Fan.
10. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent: “Fan va axborot texnologiyalari”, 2019.
11. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O’quv ko’llanma-T., 2013.
12. Adler A. (1927). Understanding Human Nature. Kompensatsiya nazariyasi va deviant xulqni tushuntirish.
13. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish va ta’limdagi rol.